

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2006-yil 16 - 22 - yanvar N:3 (66544)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA

BEKXEM HAM O'RGANADIMI?



3
-BETDA

RAXSHA BANDKAN



5
-BETDA


SARVARA



8
-BETDA

TINCHLIK HAYOTNING GO'ZAL GULIDIR

Aziz bolalar! Siz hech kuzatganmisiz, taom yeb bo'lganingizdan so'ng hamisha otanangiz qo'llarini ochib, «zamon tinch bo'lsin, xotirjamlik bo'lsin, hech kimning uyidan qutbaraka uchmasin», deb fотиha qilishadi. Hatto bu narsa ko'p takrorlanganidan siz uchun bu odatiy holga aylanib qolgan. Aslida esa dunyoning yaxshi-yomon kunlarini ko'rib «ko'zlari pishib ketgan» bobolarimiz tinchlikni nonda aziz ne'mat ekanligini anglashlari har biringiz uchun saboq bo'lmog'i lozimdir.



Dunyoning ko'p mamlakatlarida haligacha o'q ovozlari eshitilib turadi. Ba'zida ularning qo'rqinch va tahlikada yashayotgan tengdoshlaringizni ko'rib, odamning rahmi kelib ketadi.

Bir shoir «tinchlik hayotning gulidir», deb ta'riflagan ekan. Chindan ham shunday. Zero, tinchligi bo'lmagan hayot insonni alamzada bo'lishga undaydi.

Bizning hur diyorumizda tinchlik, xotirjamlik qo'ynida yashayotgan elimizga butun dunyoning havasi keladi. Sizning baxtli bolaligingizni o'ylab, ezguliklar yo'lida ildam borayotgan fidoylarga doimo rahmat deyishimiz kerak.

Ana shunday tinch va go'zal yurtimiz har kuni bayramlarga o'xshaydi. Shunday bayramlar biri bu yil Qarshi shahrida «Umid nihollari» sport musobaqasining respublika bosqichi o'tkazilishidir. Bu musobaqalar umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida bo'lib o'tadi. Darvoqe, kirib kelgan 2006- yil qashqadaryoliklar uchun qo'shaloq bayramdir. Chunki bu yil Qarshi shahrining 2700 yilligi nishonlanadi.

Sarlavhadan anglab oldingizmi, demak biz ushbu maqolamiz orqali Qashqadaryoga safar qilamiz.

Qishning ayozli kunlarida ham Qarshi shahrida quruvchilarning g'ayrat va shijoat ila ishlashlarini ko'rib, quvonasiz. Axir ular ertangi kun shodiyonasiga peshvoz chiqmoqdalar-da. Yangi inshootlarni ko'rib ko'zingiz zavqqa, ko'nglingiz iftixorga to'lib ketadi. 2004- yilning dekabr oyida boshlangan qurilish ishlari tugatilmoqda. 20 ming tomoshabinni o'z bag'riga sig'dira oladigan maydonning mahobati, futbol maydonining antiqa usulini ko'rib, hayratdan yoqa ushlaysiz.



SPORTCHILAR SHAHRI BO'LADI

Prezidentimiz biz yoshlarga juda ishonadilar. Shuning uchun ham yurt yoshlariga yetarli imkoniyat va imtiyozlar yaratilmoqda. Mana to'rt yildirki, elimizda sportsevar bolajonlar uchun «Umid nihollari» sport musobaqalari qanchalab nihollarni dunyoga tanityapti. Yurtimizning eng olis qishlog'idan ham chempionlar chiqmoqda. Bu esa albatta uch bosqichli tizimning joriy etilishi va bosqichma-bosqich o'tkazilishidir. Avvallari oynayi jahon orqali jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlariga rosayam havas qilardim. Endi esa bizning Qashqadaryoda ham shunday sport maskanlari qad rostladi. Bugungi kunda har bir maktabda sport musobaqalariga bellashuvlar o'tkazilyapti. Maqsadimiz - musobaqalarda g'olib chiqib, chempion bo'lish. Ammo bu kabi musobaqalarda garchi chempion bo'lolmasak-da, qatnashishning o'zi ham sharaf deb bilaman. Sportga mehr qo'ygan tengdoshlarimga chin dildan havas qildim. Kelinglar, Qarshi shahrida biz sizlarni kutib qolamiz.

Mahliyo G'ANIYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Kitob tumanidagi 7- o'rta
maktabning 5- sinf o'quvchisi.

Qashqadaryoga safar

BOLALIKKA BAXT ERGASHADI

Xuddi Yevropa stadionlarida ko'rganingizdek, bizning futbolchilarimiz ham o'yin boshlanishi oldidan yer ostidan chiqib keladilar. Yana «Havas» tennis kortida va «Geolog» o'yingohlarida ham eng so'nggi ishlar bajarilmoqda.

Bolalikka baxt ergashadi, deganlari haq gap ekan. Yurtimizda uch bosqichli tizimning joriy etilishi yildan yilga elimizda umidli sportchilarni kashf etyapti. Qurilayotgan yangi yangi inshootlar zamirida kelajakning yangroq ovozi eshitilmoqda.

KUCH BIRLIKDA

Mirjalol bugun tuni bilan uxlay olmadi. Matematikadan berilgan uyga vazifani bajara olmay, rosa xunob bo'ldi. Endi nima qiladi? Agar ustoziga uyga berilgan vazifani bajara olmaganini aytsa, sinfdoshlari ustidan kulishmaydimi? Ustozi-chi? Sinfidagi eng a'lochi bo'lgan Mirjalolga bo'lgan ishonchini yo'qotadimi?


Shu o'ylar bilan Mirjalol tong ottirdi. Sinfdoshlarining chehralari hatto tushlariga ham kirib chiqibdi. Xullas, u erta turib, sinfdoshlari Gulhayo va Gulandomga qo'ng'iroq qildi. Ular ham uyga vazifani bajara olishmagan ekan. Mirjalol ularga maktabga ertaroq borishlarini aytib, o'zi ham yo'lga tushdi. Ular talashib-tortishib, oxiri javobni topishdi. Matematika darsida ko'pchilik uyga vazifani bajara olmaganini aytishdi. Mirjalol boshqa sinfdoshlariga bu masalani yechish yo'lini o'rgatib, besh baho oldi. Shunda Mirjalol: - Besh baho faqat meniki emas, masalani yechishda Gulandom bilan Gulhayoning ham xissalari bor, -dedi. Ustozi ularga ham besh baho qo'ydi.

Shahlo QO'LDOSHEVA,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 19-umumiy o'rta ta'lim maktabining 5- «V» sinf o'quvchisi.

VAQT ATALMISH UCHQUR OT

Tabiatning fusunkorligi, bolaligimning beg'ubor damlari qo'limga qalam olib ijod qilishga undaydi. Qalbmida bir olam orzular yashaydi. Diyorimizda biz yoshlarga yaratilayotgan sharoitlardan quvonib ketaman. Qunt bilan bilim olishimiz, turli sport to'garaklariga qatnashishimiz, o'zimiz qiziqqan hunarlarni bemalol egallashimiz mumkin. Ba'zan ko'cha-ko'yda bekor yurgan tengdoshlarimni ko'rsam ularga achinib ketaman. Vaqt atalmish uchqur ot kutib turmaydi. Shunday ekan, o'tayotgan har bir daqiqamizdan unumli foydalanaylik.



Yulduzxon XO'JAQULOVA,

Jizzax viloyati, Do'stlik tumanidagi 9-o'rta maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi.

QISH

Bir nafas qalbim ham shodlikka to'ldi,
Butun vujudimda bir o'y, bir xayol.
Bu shodlik, bu quvonch, bu zavq barchasi,
Umr bo'yi men-la qolar ehtimol.
Bir nafas yurak ham topdi-yu seni,
Oppoq qorlaringni ko'rmoq istadi.
Va dil izhorlari bitilgan o'shal,
Mahzun maktublarni senga yo'lladi.
To senga yetguncha u noma, maktub,
Qancha fursat, damlar ketmasmi o'tib?
Endi qorlaringni qo'msab yashayman,
O'sha maktubimning javobin kutib...

Dilnoza NARZULLAYEVA,
Respublika Nafis san'at litseyining 11- «A» sinf o'quvchisi.

O'G'IL BOLA IBRAT

Odatda o'g'il bolalar kamgaproq bo'lishadi. O'z fikrlarini ming bir mulohaza bilan bayon qiladilar. Ana shunda uning odobi, xulqi namoyon bo'ladi. Hamisha o'z o'rnini bilish yigit kishining oliyanobligi bo'lsa, o'zgalarga yelkadosh bo'lish uning burchidir. Uyimizda hamisha boshqalarga ibrat bo'lishga intilaman.

Sardor HAMROYEV, *Buxoro viloyati, Vobkent tumanidagi 5- maktabning 8-sinf o'quvchisi.*

Hoshimjon degan bola o'yinchoqlarni judayam yaxshi ko'rar, ular bilan suhbatlar qurib, ko'nglini chog' etardi. Nima bo'ldi-yu, u o'yinchoqlarga e'tiborsiz bo'lib, qo'pol muomala qilishga o'tib, ularni xonaning to'rt tomoniga uloqtirar va ozor berardi.

Tug'ilgan kunida buvasi sovg'a qilgan Paxmoqvoy degan ayiqchani-da uy burchagiga qarab otib yubordi. Ko'ngli buzilgan ayiqcha uydan bosh olib ketdi. U yo'l yurdi, yo'l yursa-da, mo'l yurdi, oxiri katta o'rmonga borib yetdi. Umrda o'rmonni ko'rmagandi, boshi aylandi. U qayoqqa qarab yurmasin, yana aylanib shu joyga kelib qoldi. Charchadi. Dam olish niyatida katta daraxtga suyandi va birpasda uxlab qoldi.

Paxmoqvoy tush ko'rdi. Tushida Hoshimjon uni topolmay, chinqirib yig'larmish. O'tanasini yupatishga qancha harakat qilmasin, foydasi yo'qmish.

- Xafa qilganing uchun ayiqcha ketib qolgan-da! - dermish dadasi. - Yig'lama, ertaga boshqasini olib beraman.

- Boshqasi kerakmas! - yer teparmish Hoshimjon. - Menga Paxmoqvoydan boshqasi kerak emas! Uni xafa qilganim yo'q edi. Shunchaki hazillashgandim. Do'st ham hazilni tushunmaydimi... Men uni yaxshi ko'raman. Hozir kelib qolsa, kechirim so'rardim.

Endi gapni Hoshimjondan eshiting: Haqiqatan ham xuddi shu paytda Hoshimjon o'tanasining oldida yig'lab o'tirar, chunki ayiqchani uloqtirib, ko'chaga chiqqanida, o'rtog'i Salim o'z ayiqchasi bilan o'ynab yurganini ko'rdi, havasi keldi va o'zinikini olib chiqmoqchi bo'lib uyga kirsam, ayiqcha yo'q!..

Paxmoqvoyga kelsak, u tush ko'rayotganida, oldiga shu o'rmonda yashaydigan Maymoq va Aymoq degan ayiqchalar kelib qoldi.

- Bu kim bo'ldi? - dedi Maymoq. - Junlari ham g'alati.

- Uxlaganda ko'zi ham yumilmaskan! - ajablandi Aymoq. - Qorni ochdir. Nafas olishi g'alati! Hushidan ketmaganmikan?

Ular tegilishgan edi, Paxmoqvoy uyg'ondi va ayiqchalarni ko'rib, ko'zlari chaqnaq ketdi.

- Sen qayerdan kelib qolding? - deb so'radi Maymoq shoshib.

- Qayerga kelib qolganman o'zi? - savol bilan javob berdi Paxmoqvoy. - Bu yerda daraxtlar ko'p ekan.

- Bu yer - o'rmon.

- O'rmon degani - shaharmi?

- Yo'q, o'rmon degani, bu -

o'rmon, shahar degani emas, bilding!

- Men shaharmi debman. Chunki shaharda Hoshimjonlarnikida yashardim, - tushkun ohangda gapirdi Paxmoqvoy. - Hoshimjon yaxshi bola edi, - u birdan yig'lab yubordi.

- U seni xafa qildimi? - deb so'radi Maymoq.

Paxmoqvoy "ha" demoqchi edi-yu, lekin tezda fikridan qaytdi.

- Yo'q, xafa qilmadi, o'zim adashib bu yerga kelib qoldim.

- Unda, yur, o'ynaymiz! - deyishdi ayiqchalar baravariga. - Ertaga Hoshimjonlarnikiga o'zimiz obo'ribo'yamiz.

Paxmoqvoy rozi bo'lgach, ular birgalashib har xil o'yinlar o'ynashdi.

Yovvoyi asalari inidan olingan asalni yeb,

mazza qilishdi. Quyosh botgach, ayiqchalarnikida uxlashdi va ertalab ona ayiq:

- Buncha shirin bo'lmasang! - dedi mehmon ayiqchani boshini silab. - Shu yerda qolsang-chi. Ayiqlar o'rmonda yashashlari kerak-ku!

Paxmoqvoy "xo'p" demoqchi edi, lekin Hoshimjonni ko'zi qiymay:

- Hoshimjon zerikib qoladi-da, - dedi o'rmondan turib. - U hozir meni izlayotgandir. Ko'nglim sezyapti, u kechasi uxlamagan.

- Unda, seni o'rmon chekkasigacha kuzatib qo'yamiz, - dedi aka-uka ayiqchalar...

Paxmoqvoy uyga kirib kelganida, haqiqatan Hoshimjon xafa, hech narsa yemay, ko'rpachaga o'ranib yotgan ekan.

O'yinchog'ini ko'rib, yotgan joyidan sakrab turdi-da, uni bag'riga bosdi. Paxmoqvoy ham do'sti Hoshimjonni mahkam quchoqlab oldi.

- Paxmoqvoy, meni kechir! - dedi Hoshimjon boshini egib. - Endi senga ozor bermayman.

- Sen ham meni kechir! - dedi Paxmoqvoy ham uyalib. - Endi bo'lar-bo'lmasga arazlamayman. Do'stlar doimo kechirimli bo'lishi kerak, shundaymi?

- Do'st do'stning ko'nglini og'ritmasligi kerak! - dedi Hoshimjon.

- Do'st do'stning dil ko'zgusi bo'lishi kerak! - dedi Paxmoqvoy.

Ikkala do'st yana bir-birining bag'riga otilishdi.

Sherzod ZOYIROV,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi akademik litseyining 2-bosqich talabasi.

MASLAHAT SO'RAYMAN


Assalomu alaykum, qadrdomim «Tong yulduzi» va sermazmun ijodlari bilan olg'a borayotgan tahririyat xodimlari! Hozir men to'qqizinchi sinfdan tahsil olayapman. Ko'cha-ko'yda quvlashib, qiyqirishib o'ynab yurgan bolajonlarni ko'rsam, rosti, ularga juda havasim keladi. O'sha beg'ubor, betashvish bolalik yillarim bir zumda ko'z o'ngimda gavdalanadi. Bu yil biz uchun juda mas'uliyatli. Chunki har birimiz o'zimiz istagan kollej yoki litsey talabasi bo'lamiz. Men ham yoshligimdan she'rlar mashq qilaman. Ularni tinglovchisi ham, baholovchisi ham sinfdoshlarim, yaqin dugonalarimdir. Qalbmida bir olam orzular yashaydi. Kelgusida yetuk jurnalist bo'lishni istayman. Aziz tahririyat xodimlari, buning uchun nimalar qilishim lozimligi to'g'risida maslahat bersangiz.

Mohira JONBOYEVA,

Jizzax viloyati, Zomin tumani, Dashtobod shahri.

Tahririyatdan: *Tengdoshingiz Mohiraxon yetuk jurnalist bo'lishga astoydil bel bog'lagan ekan, avvalo puxta bilimga ega bo'lishlari kerak. Axir shifokor bilan shifokor bo'lib, ishchi yoki dehqon bilan kasbdoshdek gaplashib, ular haqida yozishadida. Shuning uchun o'qish, izlanish va rostgo'ylik, xalqni o'ziga ishonтира bilishdek salohiyatga ega bo'lgulik mahorat kerak. Jurnalist el ko'zida yashaydi. Unga esa xalq baho beradi.*

Yulduzlar biz bilan



Bugungi kunda Madridning «Real» va Angliya terma jamoalarining yarim himoyachisi Devid Bekxemni bilmaydigan, uning to'pni aniqlik bilan uzatishlari hamda darvozaga bergan zarblaridan lazzatlanmaydigan futbol muxlisi topilmasa kerak. Xo'sh, Bekxemning o'zi ham kimdir havas bilan qaraganmi? U kimlardan nimalarni o'rgangan? Bekxemning quyidagi hikoyasini o'qisangiz, bu savolga javob topgandek bo'lasiz.

– Har bir jamoa safida o'zining yetakchi futbolchisi bo'ladi.

«Manchester Yunayted» safida ilgarilari Brayan Robson yetakchi edi, mana oradan yillar o'tib, ushbu nomga jamoa sardori Roy Kin ega bo'ldi. Biroq, 1992- yilda «Lids» jamoasidan Erik Kantona safimizga kelib qo'shilgach, biz faqat yuqori o'rinlar uchun kurashishimiz lozimligini anglab yetdik. Erik ishtirokidagi o'yinlarni bir necha bor kuzatganim bois, uning qanday kuchga ega ekanligini yaxshi bilardim. Lekin biz har doim birga to'p surib, birgalikda mashg'ulotlarda ishtirok etsak-da, negadir u bilan kamdan-kam futbol haqida

gaplashardim. U o'ziga juda ishonuvchan bo'lib, mashg'ulotlar nihoyasiga yetishi bilanoq kutilmaganda ko'zdan g'oyib bo'lib qoldi. Biz undan nima sababdan bunday qilishi

haqida so'rashga botina olmadik.

Erik Kantona aksariyat hollarda mashg'ulotlardan so'ng maydonda yolg'iz qolib, o'z ustida tinmay mehnat qilardi. Qizig'i shundaki, u ko'proq hamma eplay oladigan mashqlarni bajarishga odatlangan edi, jumladan, to'pni bor kuchi bilan yuqoriga tepib, uni yerga tushirmayoq to'xtatib olishga urinar, ba'zan esa o'ng va chap oyoqlari bilan to'pni devorga tepib turardi. Men

esa bunday mashqlarni ancha oldin, ya'ni, yetti yoshligimda dadam bilan uyimiz oldida joylashgan park maydonchasida bajarardim.

Professional futbolchi bo'lib yetishgach, ba'zan haftada ikkita uchrashuv o'tkazishiga to'g'ri keladi. Shunday ekan, bu kabi oson mashqlarning qanday foydasi bor ekan, deb o'ylab qolaman. Biroq, dadamning aytishicha, hamma gap to'p bilan qay tarzda muomala qilishda edi. U faqat bir gapni takrorlard: «Devid, hech qachon esingdan chiqarma, texnikang qanday bo'lishidan qat'iy nazar, futbolchining asosiy kaliti – to'pni bir hamladayoq to'xtatish bo'lishi lozim».

Shu gaplarni eslar ekanman, nima sababdan, Erikning faqat bir mashqni soatlab bajarishini tushunib yetdim. Umuman olganda Erikning tashrifi bizga ancha foyda keltirdi. Men o'sha paytlarda asosiy tarkibda kamdan-kam hollardagina maydonga tushsam-da, u bilan to'p surgan paytlarim

Erikning tug'ma sardor va yetakchi ekanligini his qilib turardim.

Qachonki

Erik Kantona haqida so'z ketarkan, odamlar ko'proq uning maydondan chetlatishi va albatta yomon xususiyatlari haqida gapirishadi. Biroq, hech bir inson kamchiliklardan holi bo'lmaydi. Shuning uchun ham men uni bu borada tanqid qila olmayman, sababi, Erik Kantona qalbimda unutilmas siymoga aylanib ulgurman...

Ma'mura MADRAHIMOVA.

BEKXEM HAM O'RGANADIMI?

Qora tanlilar oilasiga mansub bu bokschini asli ismi Kassius Kley. U 1942-yilning 17-yanvarida AQSHning Kentuki shtatidagi Luisville shahrida tug'ilgan. Sportdagi 20 yillik faoliyatida faqatgina uch marta ringda mag'lubiyatga uchragan. Shuning uchun ham uning laqabi «Qora chaqmoq»dir. Sababi, betakror bokschining usuli haligacha hech qaysi mashhur sportchida chaqnagani yo'q.

NEGA MUHAMMAD ALI?

– 12 yoshli Kassiusga bir kuni ota-onasi velosiped sovg'a qiladilar. Velosipedni minib quvonib ko'chaga chiqqan bolakayga bir bezori hujum qiladi. U ham yetmagandek, yap-yangi velosipedini olib qochadi. Bo'lajak bokschi shu

undan o'ch olish niyatida boks uyushmasiga shikoyat qiladilar. Nohaqlikka uchrab chempionlik kamaridan ayrilgan «zo'rlarning zo'ri» Kassi raqiblarini, muxlislarini hayron qoldirib, islom diniga o'tadi. Kassius Kley nomini tark etib, ismini Muhammad Ali deb o'zgartiradi.

Muhammad Ali 1996-yili Atlantada bo'lib o'tgan olimpiya mash'alasini yoqadi, mashhur bokschi hozir 64 yoshda. 40 yoshidayoq bokschilarda uchraydigan Parkinson kasaliga chalingan. Shifokorlarning aytishicha, boks tarixidagi eng yorqin yulduz hozirda tildan ham qolgan.



zahotiyog yig'lab, politsiyaga boradi. O'ksib yig'lab, bo'lgan voqeani aytib beradi.

– Mayli, velosipedingni izlaymiz, ammo sen yig'ini bas qilgin, -deydi politsiyachi.

Shu gapdan so'ng, Kassi politsiyachi Jo Martin bilan do'stlashadi. Aynan undan yakka kurash sirlarini o'rgana boshlaydi. Ilk ustozidan yosh bolakay jangda tezlik muhim ekanligini o'rganadi. Uyga kelib ham shug'ullanishni odat qiladi. Hatto ko'chadan mayda toshlarni yig'ib kelib, ukasiga shu toshlarni o'ziga qarata otishini buyuradi. Dastlab toshlarga chap berolmaganligi sabab, hamma yig'ini momotaloqqa aylanadi. Bir necha oylardan so'ng u toshlarga chap berish mahoratini oshiradi. Demak, endi u o'ziga ishonadi va boks olamiga qadam qo'yishga ahd qiladi. Hatto bir kuni murabbiy Anjelo Dandiga telefon qilib, shunday deydi: «Sizda shug'ullanmoqchiman. Ismim Kassius. Agar menga murabbiylik qilsangiz, ikki yilda olimpiya chempioni bo'lmoqchiman. Keyin esa professional o'rtasida jahon chempioni bo'laman». Bu o'spirinning gaplariga jahli chiqqan murabbiy telefon go'shagini qo'yib qo'ymoqchi bo'ladi. Ammo, «bo'pti, kel-chi, ko'ramiz», deb yuborganini o'zi ham bilmay qoladi. Shu zahotiyog Kassius mashg'ulot zaliga yetib keladi. O'zidan tajribali bir necha bokschini mag'lub etadi.

Ana shu suhbatdan bir yil o'tib, u havaskorlar turnirida g'alaba qozonadi. Xuddi shu yili AQSH terma jamoasiga qabul qilinadi. Yana yarim yildan so'ng Rimda bo'lib o'tgan olimpiyadada yarim og'ir vaznli bokschilar o'rtasida chempion bo'ladi. Chaqmoq kabi yaraqlab u barchani lol qoldira boshlaydi. Hattoki men- buyukman, meni hurmat qilinglar, deydi ham. O'ziga yuksak baho berishi Kassius Kleyga balo bo'ladi. Endi u bilan eng nomdor bokschilar bellasha boshlaydilar. Lekin ularning barchasi bu bokschining qaqshatgich zarbalariga uchraydilar. Alam qilgan bokschilar

QISHNING ALLALARI

Qishning sehrli havosi sokinlik bag'ridan asta eshitilayapti. Hatto tanani qaqshatguvchi izg'irin ham meni erkalayapti. Sehrli havoda daraxt shoxlari silkinib, qor parchalarini raqsga chorlayapti. Beixtiyor meni olqishlagan qorlar oyog'im ostida g'irchillab qo'shiq boshlayotgandek... Bularning bari qishning jodulari. Ayoq shunday faslki, garchi sovuq bo'lsa-da, insonni ajib hislarga burkaydi. Siz o'zingizni Qatra hech shunday his qilganmisiz? Uning g'aroyib hislatlari hech bir faslning mo'jizalaridan kam emas. Menimcha, qish tabiatning ulkan mo'jizasiga o'xshaydi. Butun borliq nima uchun qishda uyquga ketishini bilasizmi? Buning boisi, qish faslining allalaridir. Oromboxsh etuvchi kuy, qo'shiqlaridir. Uni hech tinglamagan bo'lsangiz, oppoq qorli kunlarda tinglab ko'ring-a! Buning sirini siz ham bilib olasiz. Mo'jizalarga ishonsangiz qish sizga hech kimga aytmagan ertaklarini aytadi. Ba'zi bolalar qishni qahri qattiq, deb biladilar. Uning g'azabidan qo'rqadilar ham. Yo'q, bu noto'g'ri. Qishning mo'jizalari qahrdan yiroq, mehrga yaqindir.

Qizlarxon YO'LDOSHEVA,
Qo'qon shahri, 9-sinf o'quvchisi.

ALISHERNI ASRAGAN TABORAK



Hazrat Navoiy ham yosh bola bo'lgan, ismi Alisher edi. Buyuk muarrix Mirxondning nabirasi G'iyosuddin ibn Humomuddin al-Husayniy XONDAMIR Navoiy vafot etganda 26 yashar yigit edi, Hirotda istiqomat qilardi. U o'zining «Makorimul axloq» asarida: «Fazl va kamol doirasining markazi

bo'lgan u zotning (Navoiy) yoshi to'rtidan o'tganda qazo mahkamasi uning parvarish va tarbiyasini osmon maktabiga muallim bo'larlik Atorud kabi ko'ngli ravshan bir adibga topshirdi. Ulug' martabali sohibqiron (Husayn Boyqaro) bilan birlikda maktabga borib, dars o'qishga kirishdi. Tangri marhamati bilan oz vaqt ichida darslarni o'zlashtirishda o'z sheriklaridan ilgarilab ketdi. Nozik ta'ning soflik va sog'lomlik ovozi olamga yoyildi va muborak fikrining dadilligi haqidagi so'zlar xalq orasida og'izdan og'izga ko'chib yurdi», deb yozadi.

Bu voqea milodiy 1445-yilda bo'lgan. XV-XVI asrlarda aksariyat tarixchilar tantanavor usulda qalam tebratganini shu «Yaxshi xulqlar» («Makorimul axloq») asaridan iqtibos keltirilgan parchadan ham ko'rish mumkin. O'sha paytlarda ham qalamkashlar o'ng qo'li bilan chap qulog'ini ushlagan, to'g'ri gapni aytish uchun

qo'lini boshidan aylantirib narigi qulog'ini qashlagan. Mayli, biz «o'ng qo'l qoidasi»ni bir chetga qo'ya turaylik, hozir xazondek qadrsiz bo'lib qolgan «so'z bo'tqasi»ni kavlab, ichidan lahimni qidirib ko'raylik. Demak, Alisher yoshi to'rtidan o'tganda, lekin hali besh yoshga to'lmagan paytida maktabga beriladi. Husayn Boyqaro bilan sinfdosh bo'ladi. Bilamizki, Boyqaro Navoiydan uch yosh katta bo'lgan.

Xo'sh, bo'lajak podshoh bir sinfda uch yil tahsil ko'rganmi? U qoloq bo'lganmi?.. Har holda, bitta sinfda uch yil o'qimagan bo'lsa-da, lekin kechikib maktabga borgan bo'lishi kerak. Boz ustiga, darslarni o'zlashtirish borasida Alisherdan orqada qolib ketadi, chunki Navoiy «darslarni o'zlashtirishda o'z sheriklaridan ilgarilab ketdi». Albatta, Xondamir to'g'ridan-to'g'ri Alisher «alochi» edi, podshoh olam Boyqaro ham undan ayrim uyga berilgan vazifalarni ko'chirib olardi deb yoza olmasdi. Shunday deb yoza, muarrixning terisiga somon tiqilishi aniq edi. Negaki, Boyqaro podshoh, uning o'g'illari shahzoda edi. 1445-yilda Hirotda maktablarida o'quvchilar nimalarni o'rganadi?

Bu savolga bevosita emas, bivosita javob topish mumkin. Chunchi, 1447-yilda Alisher 6 yoshga to'ladi. Shu yilning 12-mart kuni Mirzo Ulug'bekning otasi – Temuriylar saltanatining sultoni Shohruh vafot etadi. Shahzodalar-u sultonning bevasi Gavharshodbegim orasida toj-taxt uchun qonli janglar avj olib ketadi. Alisherning otasi G'iyosiddin kichkina esa o'zaro to'qnashuvlarda birorta firqaning yonini olgandan ko'ra, bir chetda turishni afzal ko'radi va oila a'zolarini olib,

Hirotdan Iroqqa hijrat qiladi. Yo'l-yo'lakay «Zafarnoma» asarining muallifi Sharafiddin Ali Yazdiyning vatani bo'lmish Taftda to'xtab, muarrixning xonaqosi yonidagi karvonsaroyga qo'noq (mehmon) bo'ladi. Olti yashar Alisher darhol shu yerlik o'z tengdoshlari bilan o'yinga kirishib ketadi, o'ynab yurib, Ali Yazdiy istiqomat qiladigan xonaqoga kirib qoladi. Keyinchalik «Majolisun nafois» asarida o'sha voqeani bunday bayon etadi: «Tong otqonda andoqki, o'yin atfol da'bi bo'lur, ul jamoatning atfoli (bolalari) ul xonaqohga o'ynag'ali kirdilar va faqir ham alar bila erdim, taxminan, olti yoshimda bo'lg'ay erdim. Mavlono bir rahba (supa, sahncha)da o'lturub ermishlar. Tushgan jamoatning kayfiyatini ma'lum qilmoq (bilmoq) uchun atfoldin birini tiladilar. Faqir alar sori borug'a muvaffaq bo'ldim. Har nekim so'radilar, javob aytdim. Tabassum qilib, tahsin qildilar. Dag'i so'radilarkim: «Maktabg'a borubmisen?» Dedimkim: «Borubmen». Dedilarkim: «Ne yerg'acha o'qubsen?» Dedim: «Taborak surasig'acha». Dedilarkim: «Bu jamoat atfoldin biz tilaganda (chaqirganda) sen kelib, biz bila oshno bo'lding, sening uchun fotiha o'quli», deb o'z fotihalarig'a musharraf qildilar. Va hamul zamon faqirning volidi (otasi) va ul xiyl ulug'lari kelib, Mavlono xizmatida anvoi niyozmandlig'lar qilg'ondin, so'ngra faqirg'a andoq shuur hosil bo'ldi, angakim, ne kishi erkondurlar (ya'ni, bu zotning kimligini fahmladim)».

(Davomi bor.)

Nabijon BOQIY.

TANANI JONDAN MAHRUM QILUVCHI DARD

Ma'lumki, Spid kasalligi inson hayotiga xavf soluvchi ajaldir. Kasallikni qo'zg'atuvchi VICH infeksiyasining yashirin davri 10 yilgacha va undan ham ko'p bo'lishi mumkin. Bu davrda ushbu virusni o'ziga yuqtirib olgan kishi uni boshqalarga ham yuqtiradi. Bugungi kunda OITSni davolash, unga qarshi emlash usullari ishlab chiqilmagan. Shu bois bu xavfli kasallikdan saqlanishning asosiy chorasi sog'lom turmush tarziga rioya qilish, o'z-o'zini hamisha nazorat qilib borishdir. Aziz tengdoshlarim, ba'zan bema'ni qiziqishlar-u ko'cha-ko'yda orttirilgan nasl-nasabi noma'lum «Jonkuyar» do'stlarning himmatidan yiroq bo'ling. Ko'proq bilim oling, qiziqarli kitoblarni o'qing. Albatta foydali ishlar bilan shug'ullaning. Spid tanani jondan mahrum qiluvchi davosiz ajal ekanligini aslo unutmang.

Zarnigor NARZULLAYEVA,
Buxoro viloyati, Qorovulbozor tumanidagi
1-maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi.

O'QUVCHILAR GIYOHVANDLIKKA QARSHI

Butun dunyo miqyosida dolzarb muammo – giyohvandlikdir. Bu illatni yo'qotish uchun barcha mamlakatlar bel bog'lagan, ammo giyohvandlikka ruju qo'rganlar soni ortib borayapti. Inson bu yo'lga kirgandan keyin ortga qayta olmaydi. Kerak bo'lganda tashlab yuboraman deb o'ylab, bora-bora kuchliroq dozalarda tatib ko'rishadi. Ammo bu yo'lning oxiri tubsiz jarlik bilan tugashini aslo xayoliga keltirmaydi. Giyohvandlik asta-sekin jinoyatga qo'l urishga, pul topish maqsadida birovlarining joniga qasd qilishgacha olib keladi. Chunki bu kasallikka chalingan odamning oldida bittagina muammo – pul topish muammosi turadi. Bu yo'lda u ota-onasini ham ayamaydi. Keling, aziz o'quvchilar, asrimiz vabosiga aylangan bu tuzalmas dardga birgalikda kurashaylik. Toki oramizda bu illatga oshno bo'lganlar qolmasin.

Fazliddin G'OYIPOV,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
29-maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi.

Keyingi vaqtda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalari tomonidan «Bolalarimiz yechayotgan misol-masalalarga tushunmayapmiz», «Bu masalalar yuqori sinf o'quvchilariga tegishli emasmi?» deganga o'xshash turli e'tirozlarni eshitib qolamiz. Ba'zida ota-onalar «Bolamizga o'qituvchisi she'r to'qib kelgin, krossvord tuzib kelgin» deb noo'rin topshiriqlar beradi, deb ham nolish qolishadi.

Menimcha, bunday e'tirozlarning paydo bo'lishiga asl sabab ba'zi ota-onalarning bolalari maktabda nimalarni o'rganishayotgani, qanday ta'lim olishayotgani haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaganlaridan kelib chiqayotir. Maktabimizda o'n uch nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi ishlaydi. Ularning o'z malakasi ustida tinimsiz ishlayotgani, har safar o'quvchilarga yangi vazifalar berish uchun izlanayotganlarini kuzataman. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berishda ularning mustaqil ishlashlariga, erkin fikrlab, ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishlariga ko'proq e'tibor qaralayotir. Maktabda bolalarimiz bu topshiriqlarni jon deb qabul qilishadi, uzaytirilgan dars soatlarida (prodlyonka) ularni tirishqoqlik bilan bajarishga harakat qiladilar. Ana shuning uchun bolalarimizga sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazishda o'qituvchilardan ishga ijodiy yondashuv talab qilinadi. Pedagogik texnologiyalarning zamonaviy usullaridan unumli foydalanayotgan «boshlang'ich o'qituvchilarimiz» bolalarining dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqil fikrlab, o'z ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga imkon beradigan topshiriqlarni berishga harakat qiladilar. Buning uchun bolalardan 4-8 misra she'r to'qib kelish, turli mavzularda testlar, sodda krossvordlar tuzish, plastilindan o'yinchoqlar

MUSTAQIL FIKRLASHGA IMKON BERAYLIK

yasash talab etilmoqda. Turli bayramlar munosabati bilan maktabda tashkil etiladigan adabiy-ijodiy tadbirlarda bolalarga jonivorlarning rolini ijro etish, mashhur e'taklar qahramonlari obrazini yaratish singari vazifalar ham beriladiki, bunday ijodkorlik mashg'ulotlari ularning aqliy barkamoliligiga turtki bo'lishi shubhasiz.

Undan tashqari, bugungi maktab darsliklaridagi dasturlarni ko'zdan kechirsangiz, misol-masalalarning deyarli hammasi bugungi hayotimizdan olinganligiga ishonch qilasiz. Matematika darsligida fermer xo'jaliklarining iqtisodiy ko'rsatkichlari, ijara munosabatlari, oiladagi byudjetning shakllanish manbalari haqida dastlabki tushunchalarni olish mumkin. Bu masalalar orqali bolalar nafaqat matematika qoidalarini, balki jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'rganib boradilar. Boshlang'ich sinflarda respublikamizning asosiy qonuni bo'lmish Konstitutsiya saboqlarining berilishi ham ayni muddao bo'ldi. Chunki mamlakatimizda huquqiy-demokratik jamiyat qurilish sari qadam tashlanayotgan ekan, farzandlarimizning o'z huquq va burchlarini bilishlari zamon talabiga aylangan. Men ota-onalarning bugungi kundagi e'tirozlarini to'g'ri tushunaman, ular ham ijtimoiy mehnat bilan bandlar, oila, ro'zg'or butunligini ta'minlash hammaning gardanida turgan muqaddas vazifa. Shunga qaramasdan, hammamiz ham farzandimiz-dilbandimizning ravnaq topib bilim olishi, ilm-fanda hech kim egallamagan cho'qqilarni zabt etishini xohlaymiz. Buning uchun esa maktab partasidan boshlab poydevorni puxta qo'yish lozim bo'ladi.

Yoqutoy NIYOZMUHAMMEDOVA,
Sirg'ali tumanidagi 268-o'rta maktab uslubiy
birlashmasi boshlig'i.



Ustozga xat

Bizning tarjima

Aziz bolajonlar, tengdoshlaringiz
Aziza YORMATOVA va Shahnoza NURIDDINOVA ToshDSHI qoshidagi xorijiy tillar akademik litseyida ta'lim olishadi.
Ular hind tilini puxta o'rganishmoqda. Quyida shu talabalarning ijod mahsulidan tarjima namunalarini o'qib ko'ring-chi?

Ushbu bayram hindistonliklarning eng qiziqarli bayramlaridan biridir. Ushbu bayram kuni singil o'z akasiga o'zining singillik muhabbatini bildiradi. O'z navbatida akasi ham singlisiga umr himoya qilishga, umrining oxirigacha singlisi uni bir javobgar bo'lishga va'da beradi. Raxsha Bandxan iyul va avgust oylarining o'rtalarida, ya'ni, Shraavan oyida nishonlanadi. Raxsha Bandxan «akalik himoyasi», degan ma'noni bildiradi. Bunda singil o'z akasining o'ng bilagiga ipakdan to'qilgan «rakxi»ni har qanday yovuzliklardan saqlasin deya bog'lab qo' erta tongdan bayramga tayyorgarlik ko'rish maqsadida maxsus ajratilgan katta idishga guruch doni bilan kukunni, rakxi, kokos va yadi. Singil o'z akasining o'ng bilagiga «rakxi»ni har qanday saqlasin deya bog'lab qo' erta tongdan bayramga tayyorgarlik ko'rish maqsadida maxsus ajratilgan katta idishga guruch doni bilan kukunni, rakxi, kokos va liklar)ni soladi. Akasining salomatligi, baxtli va uzoq Xudoga iltijo qiladi. Keyin ko'rishni taklif qiladi. unga g'amxo'rlik qilisovg'alar beradi. Ushbu ham turli-tuman ipak va bezaklar bilan yasatilgan rakxilarga to'la bo'ladi.

RAKSHA BANDXAN

qizil mitay (shirin-kelishi bilan uning umr ko'rish uchun esa shirinliklardan tatib Akasi ham ramziy ma'noda shini ta'kidlagan holda turli bayram arafasida do'konlar paxtadan tayyorlanib, to'la bo'ladi.



Qadimda Chittor podshohligidagi beva malika va mo'g'ullar hukmdori Humoyun haqida shunday deyiladi: Himoyasiz malika tomonidan buyuk Raxsha Bandxan hukumdorga yuborilgan rakxi, ikki podshohlik orasidagi diniy mojarolarni yo'q qildi. Humoyun rakxini chin dildan qabul qildi va zudlik bilan o'zining askarlarini singlisi bo'lib tutingan beva malika huzuriga yubordi.

Sizlar «banyan» daraxti haqida eshitganmisiz? Bu Hindistonda o'sadigan daraxt bo'lib, u yolg'iz o'zi turganda butun bir bog'ga o'xshab ko'rinadi. Uning kengligining asosiy sababi shuki, shoxlaridan ildiz chiqaradi. Bir necha kunda bu ildizlar to'kilib, yangi tanalar hosil qiladi. Bularni «baro'x» deb atashadi. Birgina daraxt bir necha yuzlab «baro'x»lar chiqaradi. «Baro'x»lar daraxtning tanasiga nisbatan ingichkaroq bo'ladi. «Banyan» daraxti Janubiy Osiyoning ko'plab mamlakatlarida uchraydi. Bu ulkan daraxtning soyasida minglab jonivorlar orom olishadi, uning mevalaridan oziqlanish uchun uzoq-uzoqlardan turli qushlar uchib kelishadi. Tabiatning ajoyib ishini qarangki, mana shunday ulkan daraxtning mevalari ham juda mazali bo'lar ekan. Qip-qizil

«BANYAN» DARAXTI

dumaloq mevalarining urug'i ham juda ko'p bo'ladi. «Banyan» daraxtning tanasi juda ham yo'g'on bo'lar ekan. Ildiz tanasining yo'g'onligi esa 40 futgacha bo'lishi mumkin. Uning shoxlari ham yo'g'on bo'lib, yam-yashil barglar bilan qoplangan bo'ladi. Shuning uchun ham uning soyasi juda rohatbaxsh bo'ladi. Yozda uning soyasi salqin bo'lsa, qishda esa uning soyasida isinish mumkin. Bu buyuk daraxtning soyasida bir necha minglab odamlar boshpana olishlari mumkin. Ko'p odamlar darvozalarining yoniga ana shunday «banyan» daraxtini ekishadi. «Banyan» daraxtining mevalaridan bir xil turda sharbat olish mumkin. U sut kabi oppoq va quyuc bo'ladi. Undan ko'pgina dorivorlar ham tayyorlashadi.

JAVOHARLAL NERU BOLALARNING SEVINLI SHOIRI

Hindistonlik shoir Javoharlal Neru bolalarni jonidan ortiq yaxshi ko'rgani uchun barcha hindistonlik bolajonlar ham Neruni juda yoqtirishardi. Bolalar shoirni Neru amaki deb atashardi. Bolajonlar Neru amaki bilan osongina uchrasha olishlari mumkin edi. Neru amaki bolalarni behad sevgani uchun uning tug'ilgan kuni Hindistonda «Bolalar bayrami» tarzida nishonlanadi. 14-noyabr – Neru amakining tug'ilgan kunlari. Shu kuni barcha joylarda bolalar uchun turli xil baqalar tashkil etiladi. nishonlanadi, barcha Neru amaki butun ko'rardilar. Ular qaysi o'zlari bilan bolajondilar. Bilishimcha, bog'ida bitta hindiston-Neru amaki O'zbekisqilgan ekanlar. Neru yozishib turardilar. Ana xatiga javob yozayotilova qildilar, ya'ni: «Menga bolalar bilan ishlash juda yoqadi. Ular bilan suhbatlashishni, o'yinlar o'ynashni yaxshi ko'raman. Bolalar bilan suhbatlashganimda, men yoshligimni ancha yillar avval o'tib ketganini bir zumga bo'lsa ham unutaman. Sizlar maktabda birga o'qiyasizlar, birga o'ynaysizlar, ba'zida esa o'zaro arazlashib ham olasizlar, lekin sizlar baribir do'st bo'lib qolasizlar. Kelajakda sen ham olim inson bo'lib yetishasan. Sen hayotda barchaga do'st bo'lib yasha, ana shunda hamma seni mehr-muhabbat bilan qarshi oladilar. Hayotimizni yaxshilash bizning asosiy vazifamiz, maqsadimiz bo'lishi kerak».



Neru amaki o'zlarining har bir xatlarida bolalarga ajoyib maslahatlar berar edilar va qiziqarli voqealardan ham yozib yuborardilar. Neru amaki bolalarga butun mehr-muhabbatlarini baxsh etib, bu dunyoni tark etganlar.

QUYOSHJON

Tog' ortidan mo'ralaysan,
 «Tura qol» deb.
 Jilmaygancha chaqirasan,
 «Yura qol» deb.
 Biz shoshamiz maktab tomon,
 Yugurgancha.
 Mehnat qilar odamlar ham,
 Ulurgancha.
 Nurlaringdan bo'y cho'zadi,
 Maysalar ham.
 Go'zallikka burkanadi,
 Butun olam.
 O'ynab hali charchamadim,
 Men bilan qol.
 Sirlarim ko'p aytadigan,
 Sen quloq sol:
 – Quyoshjonim, hech botmagin,
 Ko'rgim kelar.
 Tog' ortiga yashirinma,
 Degim kelar.
Dilafro'z BAHRIDDINOVA,
 Navoiy viloyati, Navoiy
 shahridagi 11-maktabning
 9-ixtisoslashgan «Bank» sinfi
 o'quvchisi.

NON NECHA YOSHDA?



Noz-ne'matlarning eng a'losi, sultoni – non. Mumtoz shoirlar, olamga mashhur olim-u allomalar bul ne'mat xususida bejiz qalam tebratmaganlar.

Xo'sh, non necha yoshda?

U Misr ehromlaridan ham qadimiy. Nyu-York shahri muzeyida bundan 3400 yil muqaddam yopilgan non namoyish etilmoqda. Yer yuzida non paydo bo'lishi bilan insoniyat taraqqiyoti chambarchas bog'liqdir. Demak, odam paydo bo'libdiki, aziz ne'mat non ham u bilan birga hamisha mavjud bo'lgan. Bobolarimiz va momolarimiz bir burda nonni o'pib, ko'zlariga suradilar. Siz-u bizning rizq-u ro'zimiz bo'lmish bu aziz ne'matni hamisha asrab-avaylaylik!

TAOMLAR MAROSIMI

Fransiya qiroli Lyudovik XV uyushtirgan qabul marosimlarida dasturxoniga 246 ta turli xil taomlar tortilgan. Jumladan, uning tarkibida 44 xil sho'rva, 36 xil go'sht qovurmaları hamda 48 xil go'shtli yengil taomlar bor edi. Qirolning odatdagi kechki ovqatlanishi 56 xil turli taomlardan iborat bo'lgan. Demak, vitaminlarga boy bunday ovqatlar kishi organizmi uchun nihoyatda foydalidir.

Internet ma'lumotlari asosida Toshkent aloqa kollejining 1-bosqich talabasi Shahnoza JALILOVA tayyorladi.



BEGUNOH QUSH

Osmonda bir juft qush qilardi parvoz,
 Bir-biriga suykaliq qilar edi noz.
 Men esa ularni kuzatib biroz,
 Suvratin chizmoqqa olardim andoz.

Lek shu tob bir nima gumburlab ketdi,
 Go'yo yer-u osmon qimirlab ketdi.
 Oyoq ostiga yiqilgan qushning,
 Qonli ko'z yoshlari tirqirab ketdi.

Ayriqliqni hech kim qilmaydi orzu,
 Ayriqliq dillarga soladi qayg'u.
 Nahotki o'q uzgan o'sha insonning,
 Qalbida uyg'onmas shafqatli tuyg'u.

Umida MURODOVA,
 Toshkent viloyati, Bo'stonliq
 tumanidagi 11-o'rta maktabning
 8-sinf o'quvchisi.

KAMBAG' ALLIK AYB EMAS

Qadim zamonda bir qishloqda kambag'al yigit bo'lgan ekan. U yigit azbaroyi kambag'al bo'lgani bois, o'rtoqlari uni yaqiniga yo'latmas, to'y-hashamlarda ham bir burchakda qolib ketarkan. U odamlarning aravasini loydan chiqarishda yordam berar, ko'cha-ko'ydagi yetim-yesirlardan bir burda nonini ayamas ekan. Kunlarning birida yigit yashaydigan ko'chada dabdabali to'y bo'libdi. U to'yga kelgan mehmonlarga choy qaynatib, choynak tashlab yuribdi. O'zi tenggi o'rtoqlari o'tirgan xonaga choy olib kirganida, bir badavlat do'sti:

- Kelib-kelib seni chuvrindi? Yo'qol, chiday olmagan toshlarga ketib yerda yashay tog'da yetiladigan Oradan oylar o'tibdi. kecha tog'dan dukkam chiroqlarni kishilarni tahqirlashi qadam bosmayman, g'orning og'zidan sopol kosada ovqat och bo'lgani uchun uni birdan: bu shu yaqin yerda ovqatini qoldirib, degan fikr kelibdi. U ovqatni joyiga qo'yib, o'zi g'ordan chiqib ketibdi. Vaqt allamahol bo'lganida kelsa, ovqat joyida turganmish. Yigit hayron bo'libdi. Xuddi shu holertasiga ham takrorlanibdi. Yigit bu yerga kelgan ovqatlarning hammasini bir chekkaga qo'yib qo'yaveribdi. Oradan bir hafta o'tibdi. Tugunlarning egasidan darak yo'q emish. Yigit g'ordan chiqib, buloq tomon yurib ketayotsa, oldidan bir chol chiqibdi. Oppoq soqolli nuroniy chol yigitga: - Bolam, senga har kuni ovqat olib keldim, nega yemading? - debdi. Yigit bu ovqatlar birovlariniki deb o'ylab, ularni bir chekkaga qo'yib qo'yganligini aytibdi.



- Sen birovning haqiga xiyonat qilmaydigan insofli yigit ekansan, bu yerlarga nima uchun kelib qolganingni ham bilaman. Tila tilagingni, - debdi otaxon unga qarab. Yigit nima tilashni bilmay, arava bersangiz, o'shani g'ildiratib, tirikchilik qilsam, debdi. Chol: - Senga arava bilan tillolar ham hadya qilaman. Seni shuncha kun sinadim, qorning och bo'lsa-da, tugunlarni birovni haqqi deb o'ylab, ularga qiyo ham boqmading. Sen boshqa odamlardan farq qilar ekansan, - debdi va g'oyib bo'libdi. Yigit g'orning oldiga kelsa, ot arava bilan uning ustida tillolar yaltirab turganmish. U qishlog'iga qaytibdi. Eng avvalo g'arib kulbasi o'rniga yangi imorat qurdiribdi. O'ziga o'xshagan beva-bechoralarga hadyalar beribdi. Keyin qishloqdoshlariga osh berib, uylanibdi. Uni kambag'al deb kamsitgan do'stlari uning boyligi behisobligini ko'rib, ta'zim qila boshlabdilar. Xullas, yigit vijdoni toza, iymonli bo'lgani uchun ham boyluk orttirib, kambag'allarga homiylik qila boshlabdi.

Sunnatilla IKROMOV,

Parkent tumanidagi 7-o'rta maktabning 7-sinf o'quvchisi.

Qadim zamonda uzoq qishloqda To'lqin va Nazira ismli aka-singillar bo'lgan ekan. Ular otalaridan erda ajragan, bir uyda yolg'iz yashasharkan. Nazira akasini qattiq yaxshi ko'rar, dunyodagi bor narsalarni unga tortiq qilishga tayyor ekan. Lekin akasi buning aksi ekan. U singlisini xushlamas, yurgan yo'lida jerkib, urushib yurarkan. Bir kuni To'lqin singlisiga: - Men uzoq safarga ketayapman. Qachon kelishim noma'lum, sen uydin tashqariga chiqmay, qorovullik qilib o'tirgin, - debdi. Oradan oylar o'tibdi. Nazira akasidan xavotir olib, uning dardida ado bo'libdi. U har kuni yo'lga ko'z tikar, «tiq» etsa, akajon, deb yugurib chiqardi. Yillar o'tib, u juda chiroyli qizga aylanibdi. Qo'llariga igna sancha-sancha tikuvchilikni o'rganibdi. Akam kelsa, mazali ovqatlar pishirib beray, deb pazandachilikni o'rganibdi. Ularning tabib qo'shnisi bo'lib, u qizga odamlarni davolash sirlarini o'rgatibdi. Endi

izlab kelgan odamlarni akasiga hech qayerga bergandi, lekin iloj-chiqishga majbur bo'lganidan eshiting:

TABIB QIZ

To'lqin uzoq yo'l yuribdi. Bir shaharga borib qolibdi va u yerda allomaga shogird tushib, o'qish, yozishni o'rganibdi. Yaxshi odamlarga ergashib, boyluk orttiribdi, shahardagi boylar qatoridan o'rin olibdi. Lekin qishloqning faqirgina uyida qolgan ma'suma singlisi uning yodidan ko'tarilibdi. Bir kuni uning boyligini ko'ra olmagan do'stlari To'lqinni yo'ldan olib tashlamoqchi bo'lishibdi. Ular ziyofat uyushtirib, uni zaharlashibdi. To'lqin ne bir ahvolga tushib, ozib-to'zib ketibdi. O'limi yaqinligini sezibdi. Shunda uning yaqin o'rtog'i: - Bir qishloqda tabib qiz bor ekan. Uning dovrug'i hamma tomonga tarqalgan. Unga olib borsam, nima deysan? - debdi. To'lqin behol ekanligini, bora olmasligini aytibdi. Shunda uning do'sti o'sha tabib qizni qidirib yo'lga tushibdi. Bir amallab Nazirani topibdi va vaziyatni tushuntiribdi. Nazira ikkilanib u yerga borishga rozi bo'libdi. Ular uzoq yo'l bosib, bemorning huzuriga kelishibdi. Nazira ne ko'z bilan qarasaki, to'shakda bir ahvolda uning akasi yotardi. U akasining dardi og'irligini sezsa-da, o'ziga bildirmay, xudodan uning o'rniga meni jonimni ol, deya nola qilib, akasini davolay boshlabdi. Nihoyat, u ko'zini ochibdi. Qarasa, qarshisida o'zi qachonlardir tashlab ketgan singlisi ma'yus jilmayib turardi. U singlisini mahkam quchib, uzr so'rabdi. Shunda Nazira:

- Men sizni allaqachon kechirganman, - debdi. Shunday qilib, aka-singil yana topishibdi. Akasi bor mol-mulkini yig'ishtirib, ota uyiga ko'chib kelibdi. Ular yana baxtiyor va farovon yashay boshlashibdi...

Kamola ERGASH qizi,

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi A.To'laganov nomli 7-o'rta maktabning 11-sinf o'quvchisi.


TELEVIZOR - ENG KUCHLI «NARKOTIK»

«Vanguardia» deb nomlanuvchi ispan gazetasida yozilishicha, televizorni ikki soatdan ortiq tomosha qilayotgan bolalarning aksariyati maktabda yomon o'qisharkan. Buning sababi esa, televizordagi berilayotgan ko'rsatuvlarning kuchi shu darajada bo'larkanki, hatto o'quvchi darsda o'tirganda ham tomosha qilayotgan multseriali yoki kinofilmini oxirini nima bilan tugashi haqida o'ylab o'tirarkan. Ispaniyalik pediatr Fransisko Munosning ta'kidlashicha, o'smirlarga televizorda berilayotgan reklamalar, musiqali kliplar, turli shoular ularning ongida chekishga, ichishga, narkotik moddalarni tatib ko'rishga ishtiyoqlarini kuchaytirarkan. Shuningdek, bolalar kinofilmlardagi qahramonlarga taqlid qilib, do'stlaridan, ota-onalaridan ham kamchilik qidirishga tusharkan. Shuning uchun ham Fransisko Munos televizorni eng kuchli «narkotik» deb atagan.



Bola va dunyo

KOMPYUTER VA SALOMATLIK



Bugungi kunimizni kompyuterlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Keyingi paytlarda oddiygina tizim ham kompyuterlashtirilib, odamlarning jismoniy mehnatlari yengillashtirilayapti. Bu «aqli mashinaga» ko'pchilik o'rganib qolgan. Hatto bolalar ham kinofilmlar-u multfilmlarni kompyuterda ko'rishni afzal ko'risharkan. Ammo uning zarari-chi? Og'irimizni yengil qilayotgan bu mashinalarning inson salomatligiga yetarlicha zararliligi haqida o'ylab ko'rganmisiz? Olimlar kompyuter monitori orqali taraladigan elektr maydoni inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishini aniqladilar. Kompyuter oldida juda ko'p o'tirgan odam eng avvalo uyqusizlik dardiga chalinar. Undan paydo bo'layotgan elektr nurlari inson tanasidan bemalol o'tib, ichki to'qimalarga jiddiy zarar yetkazib, oqibatda ichki kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'larkan. Buning oqibatidan qanday qutulish mumkin?

Eng avvalo kompyuterda vaqti-vaqti bilan ishlash, ish joyini to'g'ri tanlash kerak. Kompyuter monitori bilan orangizdagi masofa bir metrqa yaqin bo'lsin. Agar kompyuteringizning himoya ekrani bo'lmasa, zararli nurlarni yutuvchi filtr o'rnatishingiz kerak. O'tiradigan kresloingizning suyanchig'i uzun bo'lishiga ahamiyat bering. Vaqti-vaqti bilan ko'zlaringizga, qo'llaringizga dam berib, mashq qiling. Esingizda bo'lsin, katta yoshli odamlar bir kunda 4 soatdan, kichik yoshdagi bolalar esa yarim soatdan ortiq o'tirmasliklari kerak.

Nonni siz uvul qilmang,
Bir kuni zor bo'lasiz.
Non-chi, bu aziz ne'mat,
Yeysiz, kuchga to'lasiz.
Nonushta qilsangiz gar,
U dasturxon ko'rkidir.
Kuch quvvatning manbai,
Qalbimiz g'ururidir.
Ushog'i hech tushmasin,
Avaylab qo'lga oling.
Non aziz, non mo'tabar,
Unga do'st bo'lib qoling.

NON



Anvar BAHODIR o'g'li,
Alisher Navoiy nomli
Respublika Nafis san'at
litseyining 6-«A» sinf
o'quvchisi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Sandal ko'rmay o'sgan hamkasblarim zerikibmi yoki oppoq-oppoq qorlarni sog'inibmi, shahardan kelib qolishsa, sovqotib mening uyimga tiqilishadi. Olovni ochaman-da, ozroq isiriq tashlab yuboraman. Shahardan ergashtirib kelgan mikroblaringiz o'ladi deyman. Ular hay-haylab, bay-baylab, sandalga bag'irlarini berishadi-yu, zum o'tmay mudray boshlashadi.

- Yopiray, sandalingizni sehri bormi, yo jinlaringiz avrayaptimi,-deb hayron bo'lishadi, tortinmay yosti qo'rashadi. Bir pasgina tosh qotib uxlashadi. Lekin uzoq uxlagandek kallalari tiniqib, uyg'onishadi-yu, «mazza qippan» deb qo'yishadi. Bu sandaldagi cho'qqayam bog'liq. O'rik o'tini bo'lsa, asablarni tinchlantirib, xuddi avragandek, uxlatib qo'yadi. Tut o'tini bo'lsa, tanaga quvvat beradi. Buni men keksalarning «o'rik o'tin asabga, tut o'tin nasabga» degan gaplaridan bilib olganman. Mantiqan ham shunday. O'rikning yangi pishgan mevasiyam, turshagiyam yurakka davo. Tabiblar ham, do'xtirlar ham shuni buyurishadi. Tut bo'lsa bahor pallasi ayni ilikuzuldi paytida pishadi. «Og'zimiz tutga yetdi, Xudo xohlasa endi o'lmaymiz» degan gaplarni ko'p eshitganmiz. Shuning uchun ham tabiblar quvvatsiz odamlarga tutdan qilingan shinni, tutmayzlarni buyurishardi. Men o'choqqa o'rik bilan tut o'tinni aralastirib yoqaman. Unaqasigayam, bunaqasigayam davo bo'lsin deyman-da! Aralastirishimning boshqa bir sababiyam bor. O'rik o'tinning cho'g'i sandalga tushgach hash-pash deguncha pista ko'mirga aylanib qolarkan. Tut o'tin pista ko'mirga aylanmaydi. Ohangaron ko'miriday lang'illab ustini kul bosadi-yu, o'chmay turaveradi. Shunday bo'lgach bag'ridagi o'rikning cho'g'iniyam o'ldirmay tirik saqlaydi. «Men yonyapmanmi, senam yonasan» deydi. Men o'rik bilan tut o'tinlarining shifobaxshligini his qilib, o'zimcha ixtiro qilaman. Har ikkovini arralab, qipig'ini olaman. Ulardan alohida-alohida damlamalar tayyorlayman. Chiroyli qirmizi rangli damlamalar hosil bo'ladi. Albatta bu damlamalarni eng avvalo o'zimda sinab ko'rdim. O'rik damlamasini ichgan kunim o'n sakkiz soat qimir etmay uxlabman. Miyam tip-tiniq, ko'zlarim ravshan, ishtaha kamay... Lekin namozlarim qazo bo'lgani uchun bu tajribam o'zimga yoqmadi. Tut o'tinning damlamasi aksincha quvvat berib, uyqumni o'chirdi. Anchadan beri kuchim yetmayotgan bir to'nka bor edi, damlamani kuchi bilan maydalab tashladim. Bundan men daraxtlarning tanasi ham dori ekanini, dori bo'lgandayam juda kuchli dori ekanligini bildim. Axir, biz o'tin qilib yoqib yuborayotgan daraxtlar nechcha yillik-ku?! O'n besh, yigirma, qirq yillik quvvatlar bor ularda! Shu tajribadan kelib chiqib bir vaqtning o'zida ham allergiya, ham astma bilan og'rib yurgan bir tanishimga achchiq bodomning qipig'ini tavsiya etdim. U achchiq bodomning mag'izini hovonchada tuyib, kap otib yurardi. Qipiqdan damlama qilib berdim. Uch kunda sen ko'r, men ko'r bo'b ketdi.

Voy uning qiynalganlari, voy uning har xil dori-darmonlarga pul sarflaganlari. O'zimam ichib ko'rgan edim, tomoqdagi balg'amlarni ko'chirib, ovozimni o'n sakkiz yoshli yigitnikidek qilib qo'ydi. Azon chaqirsam, bir chiroyli. Qo'shnimiz ko'rib turib, «hozir azonni siz chaqirdiyzmi,

boshqacha chiqdi-ya» deydi ko'zimga baqrayib. «Tomog'im bo'g'ilib turuvdi, musulmon jinlarim qarashib yuborishdi» dedim jo'rtağa. Qo'shnim «o'ziam shunaqa bo'lsa keragov deb turovdima» deb teskari o'girilib ketdi. Men u kishining teskari qarab ketmay, ilohiy mo'jizalarga ishonib, namozga kirishini juda-juda xohlardim. Shuning uchun sal mubolag'ayam qilib yuborardim. Xudoga shukr, u keyinchalik namozgayam kirib ketdi. Qo'shnim deganim xassos shoir rahmatlik Mirtemir domlaning jiyani Mirjamol edi. U tog'asining joyini obod qilib o'tirar, ToshMida xirurg bo'lib ishlardi. Asmatik kasal bilan qilgan tajribamni aytgan edim, qiziqib qoldi. Bir qarich to'nkasidan olib ketdi. Qipiq qilib o'tirmay, payrasidanoq damlama tayyorlabdi. Qarang, damlama hatto tomoq yo'llari shamollagan, allergik kasallargayam davo bo'bt. Shunday qilib, achchiqbodomning mevasi qolib, tanasiga ishqibozlar ko'paydi. Bu yomon. Tanasiga qiron kelgandan keyin mevasi qattan bo'ladi? Bu tajribani to'xtatdim.

Sandalimda mizg'ib olgan mehmonimdan sog'lig'ini so'rayman. Asab chatoq desa, sandalning chekkasida ilib turgan o'rik qipig'ining damlamasidan bir piyola quyib beraman. Bilaman, ular hamisha asabdan shikoyat qilishadi. «Shu quvvatim yo'qroqda» desa, tut damlamasini tutaman. Ba'zi shumroqlari sog'liqning dabdalasi chiqqan deb har ikkalasidanam ichvoladi. Ular ko'proq damlamalarning mazasigamas rangiga e'tibor qilishadi. O'rikniki qirmizichiroyli, tutniki novvotrang ekan deb qo'yishadi. Shoir xalqi shunaqa go'zallikka oshiq bo'ladi. Mabodo osishga hukm qilinsalar ham arqoni chiroylimikan deb qarab qo'yishsa kerak. Damlamalar bilan siylagach mehmonimga albatta sandalning ta'rifini keltira boshlayman. Uning hayotimizdan chiqib, izziz yo'qolishini xohlamayman. Axir uning o'zi bir akademiya. Oллоhim in'om etgan, beminnat shifo'xona-ku. Ha, sizga bir kelinchakdek xizmatda bo'lishini aytdim. Rost-da, hozirgi kelinlarning uchtasi bitta sandalning xizmatini qila olmaydi. Keyin sandalning ilmiy taraflariga o'taman. Kasbdoshlarimga shu tomondan kelmasa bo'lmaydi. Ijodkorlar o'zi shunaqa bo'ladi, g'irt yolg'on-uydirma narsalarga ishonishadi. Uydirmani romantika deb bilishadi. Men ularga ichki a'zolar, ayniqsa: yurak, o'pka, jigar, oshqozon, buyraklarning nuqtalari oyoq tagiga joylashganini aytaman. Buni o'zlarim bilishadi, gazetalaridan o'qishgan. Turli-tuman kasalliklar shu a'zolarining shamollashidan paydo bo'lishini, sandal oyoq tagidagi o'sha nuqtalarni qizdirishi orqali davolab tashlashini uqtiraman. Mana, deyman, sandalga o'tirishingiz bilan sizni uyqu elitdi, a? Nimaga bunday bo'ldi? Mehmonim yelka qisadi. Mana sandalda o'tiribsiz. Yarimingiz issiqda, yarimingiz sovuqda. Hozir tanangizda nimalar kechayotganini bilasizmi? Bilmasiz. Qoningiz hozir shunday shaldir-shuldir qilib oqyaptiki, hatto yo'g'on to'miringizga quloqni tutib eshitsa bo'ladi. Yopiray, deydi mehmon ko'zlari o'ynab. Ha, ha, ishonavering, deyman. Sandal ichidagi a'zolaringizda qoningiz kamida qirq besh darajada qiziyapti, tashqarida esa o'ttiz olti, to'g'rimi? To'g'ri, deydi mehmon hushyor tortib. Endi o'sha isib ketgan qon o'zini sovuq tarafga uradi. Sovug'i issiqqa, qarabsizki, qon o'zidan-o'zi aylana boshlaydi. Odatda qonni yurak aylantiradi. Qon

o'zidan o'zi aylana boshlagach, yurak ozgina bo'lsayam dam oladi. Ana shu paytda odamni uyqu elitadi. Ozgina mizg'ib olsangiz, bir dunyo uxlagandek mazza qilasiz.

Bu gaplarni eshitgan do'stlarim albatta taxta pollarni buzib, sandal qurishga ahdu-paymon qilishadi. Sandalimga boshqacha hurmat va ehtirom bilan qarab qo'yishadi. Ko'rpaning bir chekkasini ko'tarib, qanday qurilganiga e'tibor qilishadi. Men sodda tushmagur endi ular ham sandal quradi deb o'ylayman. Qayoqda!

Yoz kelishi bilan eslaridan chiqib ketadi. Ammo sandalimni maqtab, gapirib yurishadi, to'g'ri kelib qolsa, o'z tillaridan asarlarigayam kiritib yuborishadi.

(Davomi bor.)

Izoh: Ayrim so'zlar shevada yozilgan.

OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



Erkin MALIKOV

«Champo o'tli ilon»

«Sharq» nashriyat-matbaa aksiyayozuvchi Erkin Malikov-asari kitobxonlar uchun ravon tili, undagi voqea-qalbimizga juda yaqin. Unda qadriyatlarimizni, dinimiz va singdirishda muhim ahamiyat go'shalardan biri bo'lmish Chotqol tog'lari bag'rida mo'jzagina dala hovlisini hech yozuvchining 5-6 yillik Undagi «Onazor», «Nevara», xotiralar», «Qaldirg'och» qissalarini o'qir ekansiz, bolalik kabi kezib yurasiz. Ba'zida esa bir zumda o'quvchisiga aylanasiz- qolasiz. yu, nima musurmon a v l i y o anglaysiz. Bir og'iz kalima ming bir yomonlikdan forig' qilishini ba'zan unutib qo'yamiz. Muallif esa buni yodimizga solib hushyor bo'lishimizga undaydi. Yer bag'ridagi eng kichik zarradan tortib to koinotgacha mavjud borliq tabiat qonunlari asosida bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Qissalardagi qahramonlarning ichki tuyg'ulari ustalik bilan ochib berilgan. Ular bugungi kunimiz odamlari. Siz-u biz bilan yonma-yon yashab kelmoqda. Qushlar, jonivorlar, hayvonlarning o'z tilimizda so'zlarini eshitmasak-da, fahm-farosatimiz bilan anglashimiz mumkinligini sergak yozuvchi bizga ta'kidlab o'tadi. Tabiatni, jonivorlarni asrab-avaylash, mavjudod olami va inson bitta ildiz ekanligini kitobxonga singdirish asarning bosh g'oyasidir. Bir so'z bilan aytganda, ushbu asar o'zligimizni anglab, tevarak-atrofimizdagi tiriklik manbaiga aslo befarq bo'lmaslikka undaydi. Aziz kitobxon! Asarni o'qiganingizdan so'ng, unga xolis bahoni albatta o'zingiz berasiz. Biz esa sevimli yozuvchimizni yangi asari bilan qutlab, ularga ijodiy barkamollik tilaymiz.

Jamila ERDONOVA.

Og'aytib... o'g'aytib...
TONG
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar OLIMJONOVA,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Anvar ZOKIROV,
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Sobirjon SHARIPOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi -58414
Buyurtma N: J 1961

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin
SHAYADGAROV.
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA.

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10
144-63-08

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45

Dilga yaqin qo'shiqlarni eshitsangiz, beixtiyor xonandani yaqin kishingizdek tasavvur qilasiz. Hozirgi kunda nima ko'p, qo'shiq ko'p. Kim ko'p, xonanda-yu sozandalar ko'p. Har biri o'zicha yo'nalishga ega. Har birining o'z muxlis-u muxlisalari bor. O'z san'ati bilan yosh-u qarining ko'nglidan birdek joy ola bilgan Sarvara ODILXO'JAYEVA bugungi uchrashuvimiz mehmonidirlar.

– Men uyda besh farzandning kattasiman. Oilamiz ziyoli oila bo'lgani uchunmi, ota-onamiz bizga kam vaqt ajratishardi. Lekin bizning tarbiyamiz, qiziqishlarimiz bilan alohida shug'ullanishgan. Har kuni ayajonimdan ertak eshitmasdan uxlamasdik. Bolaligim so'lim Andijonda o'tgan. Dadam san'atga aloqador inson bo'lganliklari uchun uyimizga tez-tez mashhur san'atkorlar kelib turishardi. Dadam ularni yonida menga ashula aytirardilar. Hatto menga atab «Sarvara» deb qo'shiq ham kuylaganlar. Mening orzuim faqat shifokor bo'lish edi. O'zim o'ta uyatchan

boraman deb va'da beraman.

– Nima uchun ko'pгина qo'shiqlaringiz dardli ohangda kuylangan?

– Kimdir dardli qo'shiqlarni aytishi kerak-ku. Men siyqasi



USTOZIMGA BIR QUCHOQ GUL

qizman. Yo'q, aytishni bilmayman desam ham qo'shiq kuylashimni astoydil xohlagan ayam aytib ber deb majbur qilardilar. Shunda mehmonlar oldida uyalib qolmaslik uchun hech kim yo'q vaqtlarda oynaga qarab repetitsiya qilardim. Negadir hamma ovozimni gapirardi. Dadamning Soli aka degan baletmeyster do'stlari bu qizing sahna uchun yaralgan desalar, bir kuni telefon orqali men bilan gaplashgan marhum Ne'mat aka Qulabdullayev sening ovozingda qandaydir o'ziga xoslik, «tembr» bor ekan, dedilar. Keyin o'zim ham ovozimda «nimadir» borligiga ishona boshladim... Teatr va rassomchilik institutining an'anaviy qo'shiqlik fakultetiga o'qishga kirdim. U yerda o'zimni o'zga sayyoraga tushib qolgandek his qilardim. Hamma narsa men uchun begonadek. Chunki qo'shiqchi bo'lish xayolimda ham yo'q edi-da. Eng birinchi aytgan qo'shiqlarim «Otmagay tong...» va «Nurxon»dan ariyalar edi. O'qishni bitirgach asta-sekin estrada yo'nalishida ham o'zimni sinab ko'rdim va qandaydir yutuqlarga erishdim, deb o'ylayman.

– Ustozlaringiz haqida...

– Mening shu yutuqlarga erishishimda kimning yordami bo'lsa, o'sha insonni o'zimga ustoz deb hisoblayman. Eng birinchi ustozim esa albatta dadajonim. Keyin 1-3- sinflarda rus maktabida o'qiganman. Birinchi ustozim Raisa opani juda yaxshi ko'rardim. Katta bo'lib, maktabni bitirib ketsam ham bayramlarda bir quchoq gul ko'tarib, xabar olgani kelaman, deb niyat qilgandim. Maktabimiz nima uchundir yopilgach, o'zbek maktabga o'tdim. Lekin u yerga tez o'rganib keta olmadim va baholarim pasayib ketdi. 6-7- sinfga o'tgachgina asta-sekin baholarimni to'g'rilab oldim. Raisa opaga o'rganib qolgan ekanmanmi, boshqa ustozlar u kishichalik ko'nglimdan joy topa olmadilar.

– Hozirgi kungacha biror marta ustozingizni ko'rganingizmi?

– Yo'q, bora olmadim. Goh u, goh bu bahona bilan bergan va'damni bajara olmadim. Suhbat bahona ustozimni ham eslab oldim. Endi albatta ko'rgani

chiqqan mavzulardan qochaman. Yoshligimdan Zamira Suyunova, Irina Ollegrova, Daler Nazarovlarning qo'shiqlarini ko'p eshitardim. Agar qo'shiq og'ir ohangda aytilsa, yurakka tez yetib boradi. Qo'shiqlarim orasida sho'x, o'ynoqi ohanglilari ham yo'q emas, lekin inson dardi yashiringan qo'shiqlarni kuylashni yaxshi ko'raman. Bu ham mening o'z yo'nalishim. Menimcha, men aytgan mavzularda hali hech bir san'atkor ayol qo'shiq kuylamagan bo'lsa kerak.

– 2006- yilgi rejalarigiz qanday?

– Xudo xohlasa, o'zimning yakxon konsert dasturimni taqdim qilmoqchiman. Yangi qo'shiqlar va albatta yangi kliplarni muxlislar e'tiboriga havola qilaman.

– Sportga munosabatingiz?

– Sport jonu dilim. Bolaligimdan hech kim aytmasa ham har kuni ertalabki badantarbiya bilan shug'ullanardim. Voleybol desa hamma ishinni yig'ishtirardim. Jismoniy tarbiya darsiga doim qatnashganman, biror marta ham kasal bo'ldim yoki uni-buni bahona qilib dars qoldirmaganman. Xullas, bolaligimdan sportga katta ahamiyat berganman. Hozir ham bo'sh vaqtimda sport zallariga borib turaman.

– Hayotdagi shioringiz?

– Odam qanday sharoitga tushishidan qat'iy nazar, vijdoniga qarshi ish qilmasligi kerak...

– «Tong yulduzi» o'quvchilariga tilaklaringiz.

– Yaxshi o'qishsin. Yoshlikni qadriga yetishsin. «Yoshlikda olgan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir», degan naqlning mag'zini chaqib yashashsin. Hozir imkonlari, vaqtlari borligida til o'rganishsin, hunarli bo'lishsin. Men bolaligimda ota-onam til o'rganishimga katta ahamiyat bergan bo'lsalar ham, o'zimga qiziqish bo'lmagani uchun o'qimaganman. Lekin hozir afsuslanaman. San'atkor bo'lsam ham mengayam til bilmasligim pand beryapti. Shuning uchun o'quvchilar vaqtlarini behuda o'tkazmasdan, har daqiqaning qadriga yetib yashashsin. Ota-ona va ustozlarini, umuman, kattalarni hurmat qilishsin.


– Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat!
Ma'suda VOHIDOVA suhbatlashdi.

Siz kutgan uchrashuv




KICHKINTOYLARGA O'YINCHOQ

Aziz o'quvchim! Qishning sovuq kunlarida oyijoningiz ukalaringizga ko'chaga chiqib o'ynashga ruxsat bermasligi tabiiy. Chunki sovuqda tez kasallikka chalinishi mumkin. Shuning uchun sizlarga ukalaringiz uchun ajoyib o'yinchoq yasashni o'rgataman.



Qalin karton qog'ozga bir xilda baliqchalar rasmini chizib qirqib oling. Ularning qorniga istalgan sonlarning ayirmasini va qo'shilganini yozing. Og'ziga esa kichik temir bo'lagi yoki mixni yelim va skotch yordamida yopishtiring.



9 ta gugurt qutichalarining ichki qavatini olib, ustiga 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni yozib chiqing.



Muzqaymoq cho'pini mix yordamida teshib, qalin ip o'tkazing va ip uchiga magnet bo'lagini bog'lang.

Endi uka va singillaringizga o'yinni qanday o'ynashni o'rgating. Qarmoq yordamida baliqlardan birortasini tutadilar va uning qornidagi misolni yechadilar. Javobga qarab (agar javob 1 chiqsa, 1 raqami yozilgan qutichaga, 2 bo'lsa 2 raqami yozilgan qutichaga) qutichalarga baliqlarni joylaydilar. Xato qilgan ishtirokchi o'yindan chetlatiladi va oxirgi qolgan ishtirokchi g'olib sanaladi. G'olibga biror shirinlik sovg'a qilinadi.